



The technology of using fairy tales in speech training

Nodira AZIMOVA¹

Turon Zarmed University, Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2023

Received in revised form

15 May 2023

Accepted 25 May 2023

Available online

15 June 2023

Keywords:

fairy tale, folk oral fiction,

matal,

ushuk,

varsaki,

chupchak,

fictional fiction,

character,

upbringing.

ABSTRACT

This article explains that the fairy tale is one of the most ancient, popular types of folk oral creativity. In the activities of preschool educational organizations at the Center "Language and Speech", the role of fairy tales in raising children in the national spirit, introducing them to traditions, rituals, natural phenomena, and animals, and, most importantly, in growing their speech and increasing the wealth of vocabulary is laid down.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss4/S-pp139-143>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Nutq o'qirish mashg'ulotlarida ertaklardan foydalanish texnologiyasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ertak,

xalq og'zaki ijodi,

matal,

ushuk,

varsaki,

cho'pchak,

xayoliy uydirma,

personaj,

tarbiya.

Ushbu maqolada ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turlaridan biri ekanligi izohlab o'tilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Til va nutq" markazida olib boriladigan faoliyatlarida bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda, urf-odat, marosimlar, tabiat hodisalari, jonivorlar bilan tanishtirishda va eng muhimi, ularning nutqini o'qirishda va lug'at boyligini oshirishda ertaklarning tutgan o'rni haqida ma'lumotlar yoritilgan.

¹ Teacher, Turon Zarmed University. Independent applicant, Bukhara State University.

Технология использования сказок в обучении речи

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

сказка,
народная устная проза,
матал,
ушук,
варсаки,
чупчак,
художественный вымысел,
характер,
воспитание.

В данной статье объясняется, что сказка является одним из древнейших, популярных видов народного устного творчества. В деятельности дошкольных образовательных организаций при Центре «Язык и речь» роль сказок в воспитании детей в национальном духе, приобщении их к традициям, обрядам, явлениям природы, животным и самое главное, в развитии их речи и заложено увеличение богатства словарного запаса.

Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, ommaviy turlaridan biridir. Ertakning paydo bo'lishida qadimiy urf-odat, marosimlar, tabiat hodisalari, jonivorlar muhim o'rin tutgan.

Hayot haqiqat bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar ertak deyiladi. Ertakning ba'zi bir viloyatlarda boshqacha atamasi ham uchraydi. Masalan, Surxondaryo, Samarqand, Farg'onada – matal, Buxoro atrofida ba'zi qishloqlarda – ushuk, Xorazmda – varsaki, Toshkent shahri va uning atrofida cho'pchak atamasi ham ishlatiladi.

Epik turdagi asarlarda, ayniqsa, ertaklarda xayoliy uydirmalar asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'ziga xosligi bilan ham ajralib turadi. Ertak kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanmadan tashkil topadi. Ba'zi ertaklar “Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir podshoh (yoki cho'pon) bo'lgan ekan”, “Sizga bog' bo'lsin, bizga hayot” kabi qisqagina boshlamalar bilan boshlansa, ba'zi boshlamalar ancha uzun bo'ladi. Ertaklarning mavzu jihatidan hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklar kabi turlari bor. Bu ertaklar orasida hayvonlar haqidagi ertaklar ham o'z o'rniga ega.

Hayvonlar haqidagi ertaklar barcha qiziqib tinglaydigan va o'qiydigan fantastik hikoyalardir. Ulardagi asosiy mazmun majoziy tarzda tasvirlanadi, asar qahramonlari hayvonlar bo'lsa-da, voqealar odamlar turmushi kabi kechadi. Hayvonlar haqidagi ertak personajlari – bo'ri, tulki, sher, turli parranda va hasharotlar xuddi odamlarday harakat qiladilar, gapiradilar. Bunday ertaklarda Tulki – ayyorlik va munofiqlik, Ayiq – go'l, laqmalik, Bo'ri – qonxo'rlik, Chumchuq – chaqimchilik ramzi sifatida xayolimizda muhrlanib qolgan. Xalqimizda bironing salbiy qiligi, muomalasi hamisha ham yuziga aytilmaydi, aniqrog'i, bironing aybini ko'rsatib tanbeh berishdan ko'ra, uni yomon odatlardan ogoh etish, qaytarish millatimizga xos xususiyatdir. Bema'ni xulqli odamni yaxshi yo'lga boshlash, tarbiyaga muhtoj insonni ezgu ishlarga undashda xuddi shu hayvonlar haqidagi ertaklar, ulardagi majoziy qahramonlar (bo'ri, tulki, eshak, xo'roz) qo'l keladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi tarixida ertaklarning badiiy asar darajasiga ko'tarilishi va bugungi kungacha saqlanib qolishida Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o'g'li, Haydar Baychi o'g'li, Nurali Nurmat o'g'li, Husanboy Rasul o'g'li kabi ertakchi, matalchilarimiz katta xizmat qilganlar. Ular og'zidan yozib olingan o'zbek xalq ertaklarining bebaho namunalari bizga hanuzgacha ma'naviy zavq berib kelyapti.

“Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” degan naql bor xalqimizda. Ular shunchaki ko'ngil ochish vositasi, ermak emas, balki ajoyib suhbatdosh, bizni faqat ezgulikka undovchi, zavq-shavq bag'ishlovchi ma'naviy manbadir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Sababi, ushbu metodlar bolalarning badiiy tasavvurlari hamda bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan barcha metodlar orqali bolalarga nutq normalari va qoidalari, ijtimoiy hayot voqealari o'rgatiladi. Bolalarda badiiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Ularning nutqini o'stirishda ularni noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish mumkin emas. Bu o'rinda barcha metodlardan o'z o'rnida izchillik bilan kompleks ravishda foydalanish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning nutqiy sifatlarini shakllantirishda tushuntirish va namuna ko'rsatish metodidan foydalanish katta natija beradi.

Nutq boyligini o'stirishga qaratilgan va badiiy didini yuksaltiradigan ertaklardan namunalar ko'rsatish orqali bolalar nutq normalari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallaydilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar nutq o'stirish tajribalarini kengaytirib borish, xulq-atvorida chiroyli atamalar bor yoki yo'qligini aniqlab borishda tarbiyachidan ziyraklik talab etiladi. Ertakdagi qahramonlarning hatti-harakatlarini tahlil qilish jarayonida bolalar o'z fikr-mulohazalarini aytishlariga o'rganadilar. Ertak qahramonlarining har bir xatti-harakatini ongli ravishda, axloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar. Badiiy adabiyotni o'qib berish, san'at asarlari va amaliy san'at buyumlarini tomosha qilish, multfilmlar tomosha qilishda, musiqa va ashula eshitish bolalarda estetik hisni uyg'otadi, shu bilan bir qatorda nutq qoidalari va normalarini singdirib boradi. Bolalarning nutqiy sifatlarini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotida turli xil metodlardan foydalaniladi.

Ertaklarning badiiy kuchi- uning namunaviy ahamiyatga egaligidadir. Ertaklarda bolalarning yosh xususiyatlari alohida e'tiborga olinadi. Voqealar qiziqarli, sodda, ixcham, izchil, qisqa bayon etilishi talab qilinadi. O'zbekistonning turli viloyatlarida bu janrga oid asarlar turlicha (toshkentliklar- cho'pchak, farg'onaliklar -matal, xorazmliklar -varsaqi) atalgan. So'z mulking sultoni hazrat Alisher Navoiy ham g'azallaridan birida cho'pchak so'zini qo'llaganlar:

*Habibim husni vasfin uyla muhlik anglakim bo'lg'ay,
Qoshinda qissai Yusuf bir uyqu kelturur cho'pchak.*

Ushbu baytdagi "cho'pchak" so'zi 1959-yil "Navodir-ush-shabob"ning qayta nashrida "cho'rchak" shaklida yozilgan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy zamonida "cho'rchak" yoki "cho'pchak" atamasi bo'lgan deb aytishimiz mumkin bo'ladi. Baytdagi "uyqu" so'ziga e'tibor beradigan bo'lsak, oqshom payti bolalarni uxlatishda ertakning sehrli ta'sir kuchidan foydalanish nazarda tutilganiga guvoh bo'lamiz.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertakning ta'lim-tarbiyaviy jihatlarini bolalar ongiga yetkazib berishda tarbiyachi bir qancha usul va vositalardan foydalanishi mumkin. Har bir usul va vositadan tarbiyachi o'z o'rnida foydalanishi tavsiya qilinadi.

Bu vositalardan biri – bolajonlar uchun sevimli bo'lgan, ular qiziqib tomosha qiladigan multfilmlardir. Multfilmlar "kam kuch sarflab, ko'proq natijaga erishish vositasi" desak xato bo'lmaydi. Sababi, multfilmlarni bola tomosha qilganida ko'proq ma'lumotni oladi. Bu esa tarbiyachiga juda katta ma'suliyat yuklaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'yib ko'rsatilayotgan multfilmlar-o'zida milliylikni, ta'limiylikni, tarbiyaviylikni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Bolajonlarimizga o'zimizning milliy

multifilmlarimizni qo'yib ko'rsatishimiz orqali ularning nafaqat ta'lim, balki nutqiy sifatlarini ham shakllantirishimiz mumkin. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagi. Bu ertakning multfilmida Zumradning atlas libosda ekanligi, uning uy yumushlarini bajarishi (tongda hovli supurishi, tandirda non yopishi, o'choqda ovqat qilishi va h.k.) bolalar diqqatini jalb qiladi.

Zumrad mehnatsevarligi, odobliligi, shirinso'zligi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lishi bilan bolajonlarni axloqiy tarbiyaga chaqiradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi barcha bolalar bu multfilmdan va ertakdan o'zlari uchun ma'naviy, milliy va axloqiy tarbiyani o'zlashtiradilar. Bizning ota-bobolarimizning an'analari qanday ekanligi, ularning kundalik faoliyatlari ro'zg'or tutish an'analari avloddan – avlodga o'tib sayqallanib kelayotgan liboslarni uyg'unlashuvini ko'radilar va o'zlariga kerakli xulosalarni chiqarishga yordam beradi, yaxshi va yomon odatlarni farqlashga o'rganadi. Ertaklardagi ijobiy qahramonga o'xshashga harakat qilib, o'zlaridagi yomon xulqlarni bartaraf etadilar. Zumradga o'xshashga harakat qilib, tozalikka, mehnatsevarlikka odatlanadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachiga yordamlashishga, xonani ozoda saqlashga, o'z-o'ziga xizmat qilishga o'rganadilar.

Shunday qilib, bolalarning badiiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning ertaklar vositasida kattalar rahbarligidagi qizg'in faoliyati tashkil etilishi lozim. Tarbiyachi bola shaxsida nutq odoblarini tarbiyalashda barcha usullar va vositalardan o'z o'rnida qo'llashi maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy va axloqiy sifatlarni shakllanishiga xizmat qiladi.

Ertaklar, ularni kim to'qishidan qat'iy nazar, ko'pincha inson mantiqiy fikri emas, xayolotining mahsuli bo'ladi. Bolalarning esa fantaziyasi o'ta kuchli. Bundan badiiy adabiyot faoliyatlarida unumli foydalana bilish kerak, xolos. Tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratish, ya'ni o'sha qahramonlar ishtirokida boshqa ertak to'qish, xotira bilan o'ynash – so'zlar va hodisalarni eslash, guruhda hikoyachi rolini bajarish – o'ylab topilgan voqeani aytib berish singari ijodiy ishlarni amalga oshirish mumkin.

Bunday ertak to'qish, hikoyachi o'rnini egallash singari faoliyatlar jarayonida tarbiyachi bolalarning ijodini, u qanday bo'lishidan qat'iy nazar, yozib borishi kerak. Masalan, yorug'lik-(qalam), shkaf-(it) so'zlar juftligi ishtirokida ertak tuzishda bolalar so'zlar juftligidagi ikkinchi so'zning nimaligini bilmaydilar. Shu so'zni qidirib dunyo-dunyo voqealarni aytib yuborganliklarini o'zlari ham sezmay qoladilar. Kimning ertagida mana shu ikki so'z ishtirok etganini tarbiyachi belgilab boradi va o'yinning oxirida buni yuzaga chiqaradi. Bu o'yindan maqsad berkitilgan so'zni topish emas, bolalarni ijodga, uning uchun o'ta foydali bo'lgan mashg'ulotga undashdan iborat.

Yoki – Nima qilarding agar... (davomi kutilmagan savollar) dunyoda pul bo'lmasa; dunyoni pul bosib ketsa; Sirdaryo boshqa planetaga tushib qolsa; dinozavr bilan to'qnashib qolsang; suv osti shaharchasiga tushib qolsang; parilar mamlakatiga borib qolsang; sehrGAR bo'lib qolsang va hokazo g'ayrioddiy, xayolparastlikka undaydigan savollar bilan ham bolalarni ijodga yo'naltirish mumkin.

Biror ertakning mazmunini o'zgartirib qayta aytish ham ancha jiddiy, ijodiy o'yin. Faqat buning uchun avval zarur vaziyatni yaratib olish kerak. Bolalar tabiatan ertaklar aslining tarafdori bo'ladilar. Ular ertaklarning ayni o'sha birinchi marta eshitgan so'zlar bilan aytilishini istaydilar. O'sha tanish so'zlarni, ular dastlabki holatida eslab qolgan iboralarni, o'sha hayajonni qaytadan tuyish, yana qayta hayratlanish, shodlanish ularga xush yoqadi.

Psixologlarning aytishicha, bola dunyoning o'zi o'zlashtirib olgan holatidan tez-tez o'zgarib turishini xushlamaydi. Uning boshqacha yo'nalishga qo'yilishi, tanish ertakni o'zgacharoq shaklda eshitish bolaga yoqmaydi. U so'zlarni tuzatishga, ertakchiga voqealarning aslini eslatishga urinadi. Bu jarayon bolani o'ylantiradi, bezovta qiladi, ziyraklantiradi, izlantiradi, xushyorlikka undaydi, aqli, xotirasini kuchaytiradi. Bola o'sha avval tuygan lazzat, hayajon, qo'rquvni qayta his qilgisi keladi. O'sha tuyg'ularni qidiradi. Agar u ertakning o'zgargan holati bilan kelishgan taqdirda ham, undagi o'zgarishlar bolani yangi tuyg'ularni his qilishga majbur qiladi. Ular endi ertak bilan emas, o'z-o'zlari bilan o'ynaydilar. O'zlariga javobgarlikni oladilar. Bu hol bolani yomon kuchlardan qo'rqmaslikka, yaxshiliklardan zavqlanishga, go'zallikdan hayratlanishga o'rgatadi. Umuman, bolaning qahramonlarga munosabatida o'zgarish bo'ladi. Bola haqiqiy hayot bilan o'ylab topilgan hodisalar orasidagi farqni anglab boradi. Bu o'yinning bolani mustaqil mulohaza yuritishga undaydigan ikkinchi jihati shundaki, bola ertakni o'zicha tahlil qilib boradi. Uning dastlabki varianti bilan yangisini taqqoslaydi. Bir vaqtning o'zida ertakning har ikkala shakliga o'ziga yarasha munosabat bildiradi. Tarbiyachi bola xayolidagi mana shu munosabatni, tahlilni, taqqoslashni so'zga aylantira olishi, yuzaga chiqara bilishi kerak. Uning tarbiyachilik vazifasi mana shuni taqozo qiladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, ertaklarning qiziqarli syujeti bolalarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka, asar qahramonlariga taqlid qilishga, ularning xatti-harakatlariga munosabat bildirishga yo'naltiradi. Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertaklar to'qishga, ijodkorlikka, sarguzashtlar tuzishga undash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avezov S.S. Folklore traditions in Navoi's works. Ilmiy maqola. Middle european scientific bulletin. 2021.
2. S.S. Avezov D.B.Xamrayeva Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida folklor kichik janrlarni o'rgatish. Monografiya. 2022.
3. N.X.Azimova,, S.U.Gulyamova, MTTlarda nutq o'stirish mashg'ulotlarida maqollardan foydalanish texnologiyasi. Ilmiy maqola. Scientific progress. 2023.
4. D.R.Babayeva, Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik. Toshkent – 2018.
5. Jumayev U.T., Azimova N.X., Raxmonova S.M. Theoretical foundations of cooperation between the family and preschool education in the moral and aesthetic development of preschool children. Middle European scientific bulletin. 2021.